

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ч.Х.Чамолов	
Ифодаи мафхуми ишқ дар шеъри фарзона	435
Е.В.Шевченко	
Особенности историзма в романах пирамкула кадырова	439
Я.И.Нишанов	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества.....	441
E.R.Adjemina	
Phraseological image and motivational model	444
Н.Д.Ирина	
Влияние философии Ницше на русскую литературу начала XX века.....	447
Н.Д.Ирина	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис.....	453
Я.И.Нишанов	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека	457

TILSHUNOSLIK

I.M.Qo'chqarov	
The grammatical features of speech acts in english	460
A.Z.Nurbek	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar	464
S.A.Yusupova	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts	471
S.A.Yusupova	
linguistic expressions of respect in english and japanese	474
Sh.Y.Usmonova	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek	477
M.K.Uktamova	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units	480
D.X.Madazizova	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida	483
Sh.B.Karimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi ..	488
Sh.B.Karimova	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili	495
Sh.R.Karimjonova	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english	500
Sh.B.Dushatova	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts	507
Sh.T.Axmadjonova	
Definition and components of comprehension skills	511
Sh.M.Aripova	
Linguocultural analysis of superstitions	515
Sh.M.Aripova	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili	519
Y.U.Abdurazzakov	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi	522
N.X.Alieva	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages	525
R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'mni	530
M.S.G'aniyeva	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini	533



УО'К:811.111.81'42+811.512.133.

BADIY DISKURSDA DIALEKTLAR INDIVIDUAL NUTQ YARATUVCHI VOSITA SIFATIDA

ДИАЛЕКТЫ КАК СРЕДСТВО СОЗДАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ РЕЧИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

DIALECTS AS A MEANS OF CREATING INDIVIDUAL SPEECH IN ARTISTIC DISCOURSE

Madazizova Dilafruz Xabibiloyevna

Fargona davlat universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Kishi nutqi kommunikativ holat, informatsiyaning tarkibi, so'zlovchi yoki yozuvchining maqsadga, shuningdek u foydalananayotgan til formasining xarakteri hamda nutqiy uslubga ko'ra shunday ko'rinishlarga ega: adabiy nutq, dialektal nutq; oddiy so'zlashuv nutqi, adabiy so'zlashuv nutqi, jargon nutqi; ilmiy nutq, badiiy nutq, tantanovor nutq yoki motam nutqi, maktubiy nutq yoki rasmiy nutq va boshqalar. Bu nutq ko'rinishlarida o'zbek tili sistemasi imkoniyatlari u yoki bu tarzda ishga solinadi.

Maqolada sotsiolektlarning qatlamidan o'rın egallagan "dialektlar" (sheva, lahjalr) haqida so'z yuritilgan. Unda tilshunoslarning dialektlar haqida fikr-mulohazali, dialektlarning adabiy tilga xos me'yoriy so'zlardan farqlari sanab o'tilgan va izohlangan. Misollar yordamida Toshkent, Buxoro (Rometan), Namangan, Xorazm kabi viloyatlar shevalari bir qancha taniqli mualliflarning asar qahramonlari tilida foydalangan, ya'ni individuallashtirigan misollar keltirilgan, Shu bilan birga, personajlar tilida ifodalangan dialektlar yordamida, muallif stislistik maqsad va vazifalarini, qahramonlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, real hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib muhit, davr koloritini berish misollar yordamida ochib berilgan.

Аннотация

В зависимости от коммуникативной ситуации, содержания информации, цели говорящего или пишущего, а также характера используемой им языковой формы и стиля речи человеческая речь имеет следующие формы: литературная речь, диалектная речь, простая разговорная речь, литературно-разговорная речь, жаргонная речь, научная речь, художественная речь, торжественная речь или траурная речь, эпистолярная речь или официальная речь и т. д. В этих формах речи в той или иной степени используются возможности узбекской языковой системы.

В статье рассматривается о диалектах, которые являются разновидностью социолектов. Приводятся мнения лингвистов о диалектах, отличиях диалектизмов от нормативных слов, свойственных литературному языку. Также стилистические цели и задачи индивидуализации языка персонажей художественной речи, т. е. придания колорита окружающей среде и эпохи, основаны на необходимости изобразить персонажей так же правдоподобно и ярко, как в жизни, не отвлекаясь от пространства и среды, в которой живут герои, раскрываются с помощью примеров.

Abstract

Human speech has the following forms, depending on the communicative situation, the content of the information, the purpose of the speaker or writer, as well as the nature of the language form he uses and the style of speech: literary speech, dialectal speech, colloquial speech, literary colloquial speech, slang speech, scientific speech, artistic speech, solemn speech or mourning speech, letter speech or official speech, etc. In these speech forms, the capabilities of the Uzbek language system are used in one way or another.

The article discusses dialects, which are a type of sociolects. It discusses the opinions of linguists about dialects, and lists the differences between dialectisms and standard words typical of the literary language. In addition, the stylistic goals and tasks of individualizing the language of characters in artistic discourse, that is, the need to give the environment, without separating them from the territory and environment in which they live are revealed with the help of examples.

Kelit so'zlar: badiiy diskurs, individual nutq, sotsiolekt, dialekt, lahja, sheva, leksik-semantik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar,

Ключевые слова: художественный дискурс, индивидуальная речь, социолект, диалект, говор, лексико-семантическая диалектика, лексическая диалектика, фонетическая диалектика

Key words: artistic discourse, individual speech, sociolect, dialect, lexical-semantic dialectics, lexical dialectics, phonetic dialectics

KIRISH

Insonlarning tildan foydalanishi ko'p qirrali jarayondir. Nutq esa, individual va o'ziga xos faoliyatdir. Shu bilan birga nutq ko'rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko'ra ham farqlanadi. Bu holni o'zbek tilida so'zlovchi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoxchi bo'lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so'zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallaganli yoki egallanmaganligi, ma'lumoti va shunga o'xshash juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'liqidir. Kishi nutqi kommunikativ holat, informatsiyaning tarkibi, so'zlovchi yoki yozuvchining maqsadga, shuningdek u foydalanayotgan til formasining xarakteri hamda nutqiy uslubga ko'ra shunday ko'rinishlarga ega: adabiy nutq, dialektal nutq; oddiy so'zlashuv nutqi, adabiy so'zlashuv nutqi, jargon nutqi, ilmiy nutqi, badiiy nutqi, tantanovor nutqi yoki motam nutqi, maktubiy nutqi yoki rasmiy nutqi va boshqalar. Bu nutq ko'rinishlarida o'zbek tili sistemasi imkoniyatlari u yoki bu tarzda ishga solinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli geografik hududlarda istiqomat qilayotgan xalqlar o'zaro muloqot mobaynida tabiiy, jonli so'zlashuv tili - "sheva"dan foydalanadilar. Bunday muloqot esa o'sha hudud aholisinining muloqot xulqini belgilab beradi.[2] Har qanday xalqning tarixi, madaniyati albatta uning jonli so'zlashuv tili – shevasida namoyon bo'lishi mubolag'a emas. Sheva (dialekt) va u bilan bog'liq masalalar dialektologlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Tilshunoslarning ta'kidlashicha, o'zbek dialektologiyasida dialektning maxsus konsepsiysi ishlab chiqilmagan.[2] Manbaalardagi ma'lumotlarga ko'ra, bu mavzu 70-80-yillarda, rus tilshunoslari ishlarida keng namoyon bo'gan. Rus tilshunoslari V.Zhirmunsky, U.Labov, A.Sheyser, V.Vinogradov, A. Zvegentsev, P.Trudgill tadqiqotlari shular jumlasidandir. [4].

Tilshunos D. Xudoyberganovaning ilmiy qarashlarida "Sheva, dialekt, lajja atamalari rus dialektologiyasida goror, dialekt, narechiye atamalalari ta'sirida yaratilgan" deb nomoyon bo'lgan. Akademik Sh. Abdurahmonov esa, uni quyidagicha izohlagan: "Sheva –biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlari ega bo'lgan eng kichik qismi; lajja – shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi. Dialekt termini dialektologik adabiyotlarda ko'pincha lajja ma'nosida, ba'zan sheva ma'nosida ham qo'llanadi." [2]

NATIJA VA MULOHAZALAR

Ma'lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so'zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Ma'lum dialekt va sheva vakillarigina qo'llaydigan bunday so'zlar dialektizmlar deb yuritiladi.[3] Dialektizmlarning adabiy tilga xos me'yoriy so'zlardan farqlari quyidagicha:

a) leksik-semantik dialektizmlar. Adabiy tilda o'z shakldoshiga ega, biroq ma'no jihatdan farqlanadigan dialektizmlar: *qalin* – adabiy tilda: qiz uzatishda kuyov tomonidan beriladigan mablag', shevada: *gilam turi*; *g'ayir*- adabiy tilda: *rashkchi* kishi, shevada: *qopag'on it*;

b) leksik dialektizmlar. Muayyan dialekt vakillari tilida qo'llanilib, adabiy tilda uchramaydigan so'zlar: *ko'ma* – *yerto'la*, *makka* – *sho'x*, *bichqi* – *qo'l arra*, *shoti* – *narvon* kabilari;

v) fonetik dialektizmlar. Adabiy tildagi fonetik jihatdan farqlanadigan so'zlar: *suvoq* – *shuwoq*, *yurmoq* – *jurmoq*, *kelmoq* – *galmoq*;

g) grammatic dialektizmlar. Adabiy tildagi grammatic shakllardan farqlanadigan so'zlar: *kelutti* – *kelyapti*, *uya* – *uyga*, *nonnan* – *nondan*.

Ma'lumki, dialektal so'zlar badiiy adabiyotda personajlar tilini individullashtirish uchun va stilistik maqsadlarda qo'llaniladi. Badiiy adabiyot va kinofilmarda mahalliy koloritni aks ettirish, asar qahramonlari nutqini real berish maqsadida dialektizmlardan keng foydalilanadi. [3]

Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zları yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlataladi. Dialektizmlar mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga, "badiiy nutqda muayyan estetik vazifani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi, ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqidir".[1]

TILSHUNOSLIK

Ijodkor vogelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun so'zlashuv tilining leksik, fonetik, grammatik imkoniyatlariidan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlariidan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettrishi bilan xarakterlanadi.

Qahramonlar ruhiyatidagi ichki his-hayajon, shodlik, xafalik, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istik kabib holatlarni berishda, shuningdek, belgi-holatning ortiq-kamlik darajasini ta'kidlashda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan ham foydalanadilar. Bunda dialektizm tarkibidagi muayyan tovushlar poetik ta'kid oladi. Fonografik (fonostilistik) usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham foydalanilishini kuzatish mumkin: "*Ibi-i-i-i!*" shaklida.

Men Buxoroning Romitan rayonidanman, otim Boqayev Po'lata o'ziym maktabda ishlayman. Shunaychukun panjshanbe kuni xotinim bilan mashinaga Boxoroda boriyb ediyim. Ketopsak, lotereya sotopti. Sotuvchi o'zimning sobiq o'quvchim ekan. "Domullo Baqoyev", dedi "manginaning lotereyasidan birtagina oling, oxe!" – dedi. Xotinim aytdi: "kot-motta odam latereyani nima qilasiz, undan ko'ra bachalarga banan-manan olaylik", - dedi. "Hay, birta latereya olsak olibmizda", deb shunday o'chirsam, "Avtomobil" deb yozib qo'yibdi. Xotinim: "Ibi-i-i-i!" – dedi-yu, yiqilib to'xtadi (Omadli jentelmenlar, 124-b.)

Ushbu misolda qo'llangan Buxoro shevasidagi dalektlarning ma'nosini shunday izohlash mumkin:

shunchayukun – shuning uchun
panjshanbe - payshanba
ibi – voy o'lmasam
kot-motta - kap-katta
oxe – axir
birta - bitta
xay – mayli
bacha - bola

Yana bir misolda esa Toshkent shevasining leksik elementlari nutqiy jarayonda jumla tashkil etuvchisiga aylanadi: **etsam eturaman, etganiydila, ketvosam, mashi**.

– **Etsam etvuraman!** Buvam rahmatli etganiydila. "Qimorri yaqiniga yo'lama, badbaxt, qimorbozzi kosasi oqarmaydi", - **deganla**. Latareya – patareyaga toqatim yo'q. Oddix kuni shoshib **ketvosam**, bir bola "mashi latareyani oling, aka, mashina yutasiz", diydi. "Yutadigan latareya bo'sa nega o'zing omiysan?" desam, "pulim yo'g'de, oka" diydi. Niche pul? Desam "besh yuz", diydi. Ming so'm bersam, qo'limga ikkita billet **tiqishtirvotti**. "Hov, bratan, izdachisini bermisanmi, sani latareyang deb uyimga peshkom ketamanmi? Disam, "ikkita olavering", ratchet **bo'lavuz**", diydi. E, bore, nima bo'lsa bo'ldi, deb mundoq o'chirsam, mashina chiqdi! (Omadli jentelmenlar, 126-b.)

Quyidagi misolda Namangan shevasi elementlaridan foydalanilgan. Matnda **pochcha** murojaat shaklidan, **didom, Namongan** singari leksik birliklardan qahramonlar yashayotgan hudud dialektiga xos xususiyatlarni ifodalash uchun foydalanilgan:

– **To'g'ri qilasiz, pochcha!** – dedi. – Mening **didomlar** ham ochganlar. **Namongonda!** Biz gul ekamiz. (Ko'kyo'tal, 27-b.)

Quyidagi misolda Xorazm shevasiga xos **galing, yoshulli, nechiksiz, naytasiz** singari birliklar ma'nosini tushunish mumkin. Biroq matndagi yop so'zining ariq ekanligini qahramonlar nutqidagi izoh orqaligina tushunish mumkin bo'ladi.

– **Galing, yoshulli!** – dedi ovozi guldirab. – **Nechiksiz?** – Teplitsani **naytasiz yoshulli**, ko'changizda "**yop**" borma? – Nima u "**yop?**" – "**Yop**"da ariq! Teplitsani go'ngi ariqqa tushadimi, axir? (Ko'kyo'tal, 30-b.)

Buxoro shevasidagi **akun, so'ropman, ibi, pamador** singari birliklar vositasida muloqot egalarining yashash manziliga ishora qilinmoqda.

Ha-a-ay, dedi salmoqlab, - **Akun** teplitsa **quropman**, deng.
 Endi qurmoqchiman.

Akun gaz **so'ropman**, deng?

Teplitsani gaz bilan isitadi-da, ukajon! – dedim "qaynim"ning gapini eslab.

*Ibi! – dedi u yelkasini uchirib. – Men sizga gazni qaydan olay? Ichimdan chiqarib beraymi, oxe? Manga gaz yo'q! Gazni davleniyasi kun sayin pasayib **ketopti!** Bog'chaga **bachalar** sovuq **qotgon**, sizni teplitsangizga **paramador pishgon!** **Shunaymi?** (Ko'kyo'tal, 29-b.)*

Andijon shevasiga xos **baqqa**, **ashi** kabi leksik birliklarni ham O'tkir Hoshimov hajviy asarlarida uchratish mumkin:

*Biz ham shuni o'ylab turgandik, kuyov tasdiqlab bosh silkidi. – Ko'chaning chetiga ka-a-a-ta qilib, "San'at ustalari konserti" deb yozib qo'yibdi. Apisha! **Baqqa** kelayotganda **ashi** kansertga tushamiz, deb qo'ygandik. Parishtalar omin degan ekan. Pochchamiz to'rttagina bilet topsalar, birgalashib tomosha qilamiz! (Ma'lumotnoma, 79-b.)*

Ushbu muloqot jarayonida o'zbek tilining adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatic va leksik, frazeologik birliklarni ham kuzatish mumkin.

Yozuvchi hajviy asarlarida qipchoq dialektini ham qo'llaydi. Quyidagi misollarda qipchoq dialektiga xos so'z boshida y undoshi o'miga j undoshini qo'llash (jil, jetmish, qibyatibman), mansabdar shaxsga bova kabi murojaat shakllarini nisbatlash, so'z oxiridagi g' tovushini v bilan almashtirish kabi fonetik jarayonlarni dialektizmlar qo'llanishidagi usullar sifatida ko'rsatish mumkin.

Uyning to'rida o'tirgan turvasoqol odam kim kirsa, uzundan-uzoq duo o'qiydi, so'ng qiroat bilan tilak bildiradi.

Ilohim sen ham mening yoshimga yetib yurgin, bolam!

Bir gap ha deb takrorlanaver-gach, Said Ahmad akaning g'ashi keldi shekilli, so'radi: - Necha yoshga chiqdingiz taqsir?

Manba? – dedi "duogo'y" salmoqlab.

Shu jil ikkam jetmishga kiraman.

– Uni qaraya, – dedi Said Ahmad aka. – Sening duoring mustajob bo'lsa, men sakkiz yil avval o'tib ketar ekanman-da! Men yetmish oltiga bordim! – Qani, tur o'mingdan uka, endi joy almashamiz! (O'ldi-aziz bo'ldi, 182-b.)

Yana bir misol:

"Musayip! Bu – qo'zilatishni qanaqa deb yozuvding?"

Juz sovliqdan **juz jetmish jetti**.

Jetmish-petmish demasdan ikki yuz qilib qo'ya qolsang o'lasanmi?

O'zi **tuvg'ani juz** o'nta, Rais bova!

– Nima? – Rais buvaning ovozi jaranglab ketdi. – Vistavkaga borishni bilasan. Medal olib, majlislarning to'rida o'tirishni bilasan. Bu yog'inijam to'g'rilib qo'y-da. Tug'masa tug'dir! Yetmasa, o'zingnikini qo'sh!

Ma'qul, Rais bova, tuvdirabiz [6]

– "Obbo, polvon-ey! – "Ferma tog'a" Shodivoyning elkasiga qoqdi. – Sho'xlik **qibyatibman**, deng! Ammo **siyirlarni** qo'rqitib **jubording'iz-da**, polvon!"^[8]

XULOSA

Badiiy diskursda yozuvchi tomonidan individuallashgan dialektlar adresatga ma'lum bir hududda yashovchi xalqning gapirish uslubi, ularning shevasi (lahja) haqida tasavvur uyog'otish bilan birga, bu xalqning intellekti, madaniyati, tarixini ham namoyon eta oladi. Sheva so'zlar mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik vazifani bajaradi. Dialektizmlarning nutq jarayonida ekspressiv xususiyat kasb etishi, ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatalishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir. Hajviy asarlarda qo'llangan dialektak birliklarni bir necha hudud shevalari doirasida qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiqdir. Dialektal birliklarning qo'llanishida har xillik ko'zga tashlandi. Masalan, leksik-semantik, leksik, grammatic va fonetik dialektizmlar orasida grammatic va fonetik dialektizmlar qo'llanish chastotasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.24.
2. Mumin S. Tabiiy va ijtimoiy ekologiyaning muloqot xulqiga ta'siri.- Far DU xabarlari. Maxsus son-2022. 914-bet.
3. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2009. 121-bet

ТИЛШУНОСЛИК

4. Ерофеева Т.И. Социолект-стратификационное исследование. Док.дисс. филол.наук. –Санкт-Петербург. 1995.
5. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015
6. Хошимов Ў. Сайланма. 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: F.Fулом, 2001.– Б.159.